

## WAYS OF RATIONAL USE AND PROTECTION OF MEDICINAL PLANTS

Yuldashova Lobarxon Mominjan qizi

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

3rd year biology student

[lobarxon2505@icloud.com](mailto:lobarxon2505@icloud.com)

**Annotation:** In this article, information about natural medicinal plants found in the territory of Uzbekistan, their areas, and the demand for medicinal plants is increasing. Therefore, the study of medicinal plants, their effect on diseases, and the preparation of medicines from them are relevant topics. In this article, we will talk about the cultivation of medicinal plants, the effect of medicinal plants on diseases and their effects.

**Key words:** Medicinal plants, alkaloids, leaf, flower, fruit, seed, glycoside, ether.

Mamlakatimiz hududi juda katta bo'lib, turli iqlimli tumanlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz o'simliklar dunyosi - florasida turli o'simliklarga boy. Ularning ichida dorivorlari ham ko'p bo'lib, har yili ming tonnalab dorivor o'simliklar mahsuloti tayyorlanadi hamda kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi. Mamlakatimizda yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning tabiiy boyligi har qancha ko'p bo'lmasin, baribir ularni ham chegarasi bor. Cheksiz miqdorda yer yuzida hech qanday boylik bo'lmaganidek, o'simlik dunyosining zaxirasi ham cheksiz emas. Shuning uchun ham tabiiy holda o'sadigan o'simlik boyliklaridan to'g'ri foydalanilmasa bu «cheksiz boyliklar» bir vaqtlar kelib Yer yuzida yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Dorivor o'simliklar tabiatda va inson hayotida katta ahamiyatga ega. O'simliklar dunyosi shu jumladan uning tarkibiga kiruvchi dorivor o'simliklari ham tabiat boyliklaridan biri hisoblanadi. Shifobaxsh o'simliklarning xosiyati qadim zamonlardan odamlarga ma'lum. Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar katta ahamiyatga ega. Juda

ko'pchilik dorivor o'simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan va o'stiriladigan o'simliklar soni 4150 ga yetadi. Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatga ega. Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan, dorivor preparatlarining qariyb 45 % i o'simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Dorivor o'simliklar turli xil sistematik guruhlarga ega. Ular turli xil zonalarda tarqalgan. Dorivor o'simliklardan olinadigan mahsulotlar ularning tuli organlaridan olinadi. Chunki kerakli bo'lgan moddalar o'simlik turiga yashash sharoitiga qarab turli organlarida joylashadi. Dorivor o'simliklar juda ko'pgina kasalliklarga da'vo bo'ladi.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simliklarning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlash uchun o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi, masalan, po'stlog'i, kurtagi erta bahorda, bargi o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug'lari pishganda, ildiz, ildizpoyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi. Tabiatning ajralmas tarkibiy qismi o'simlik dunyosidir. O'simliklar ham o'z navbatida bir necha turlarga turlarga bo'linadi. Shulardan eng muhimlari dorivor o'simliklardir.

Dorivor o'simliklar xom-ashyosini tayyorlash. O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 38-40% ini dorivor o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlari, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid va fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) shu vaqtgacha sintez yo'li bilan olib bo'lmaydi. Ularni olish manbai hozircha faqat o'simliklar bo'lib qolmoqda.

O'simliklardagi biologik faol moddalar soni, miqdori hamda sifati ularning shifobaxsh xususiyatlarini, yani dorivorlik qobiliyatini belgilashda eng muhim omillardan hisoblanadi. Dorivor o'simliklardan xomashyolaridan dori-darmon tayyorlashda, ulardan foydalanishda farmakologik ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar,

yogʻlar, efir moylari, saponinler, flavaniodlar va boshqa faol moddalar muhim ahamiyatga ega.

Shu narsani qayd etish lozimki, shifobaxsh oʻsimliklar tarkibidagi dori moddalar turlo tumanligi sabab, inson organizmining funksional sistemasi ish faoliyatiga har taraflama, yani koʻp qirrali tasir (politrol) etish quvvatiga egadir.

Shifobash oʻsimliklardan tayyorlangan dori-darmonlarning ustunlik tomonlari ham shundaki, u inson organizmida uchraydigan bir ikki uch va undan ortiq kasalliklarni davolashda faollik koʻrsatadi hamda ularni tuzatadi.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarori shifobaxsh giyohlarga oid bunday siyosati oʻsimlik turlarini munosib oʻrganish, yoʻqolib ketayotgan yovvoyi xoldagi dorivor oʻsimliklarni ximoya qilishni kuchaytirish oʻquvchilarga oʻsimliklarga hurmat bilan munosabatda boʻlish va ularni chuqurroq oʻrganish maʼsulyatini mamlakatimiz axliga ega tabobatni yoʻlga qoʻyish va oʻsimliklar tabiiy zaxiralarini yaratuvchi imkonini berdi. Bir soʻz bilan aytganda bu soxaga berilayotgan eʼtibor mamlakatimizning qimmatli dorivor oʻsimliklar bazasini yaratish va ulardan munosib foydalanish qayta ishlash bilan bogliq biznesni yoʻlga qoʻyish xalq tabobatining anʼanaviy maxsulotlaridan samarali foydalanishga sharoit yaratmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshmuratov R.A., Ajiev A.B. //QORAQALPOGʻISTON DORIVOR OʻSIMLIKLARI// Toshkent “Tafakkur avlodi” 2020
2. Usnatdinov J.N., Raimov D.M. //THE COMPOSITION AND USE OF MEDICINAL PLANTS GROWING WILD ON THE USTYURT PLATEAU// JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 8
3. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/izil-kitobga-kiritilgan-dorivor-usimlik-turlarining-soni-jangilanadi>
4. Munixon Faxriddinxon qizi Mutalibxonova //DORIVOR OʻSIMLIKLARNING AHAMIYATI VA MAYMUNJON OʻSIMLIGI//

central asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489.

VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2021

5. Axmatovich J. R. In vitro rearing of trichogramma (Hymenoptera: Trichogrammatidae) //European science review. – 2016. – №. 9-10. – С. 11-13.
6. Jumaev R. A. et al. The technology of rearing Braconidae in vitro in biolaboratory //European Science Review. – 2017. – №. 3-4. – С. 3-5.
7. Жумаев Р. А. Массовое размножение трихограммы на яйцах хлопковой совки в условиях биолaborатории и ее применение в агробиоценозах //Халқаро илмий-амалий конференция “Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотларининг устунлиги” мақолалар тўплами. Тошкент. – 2016. – С. 193-196.
8. Жумаев Р. А. Значение представителей семейства BRACONIDAE в регулировании численности совок в агробиоценозах //ЎЗМУ Хабарлари. – 2017. – Т. 3. – №. 1.
9. Жумаев Р. А. РАЗМНОЖЕНИЯ ИН ВИТРО BACON HAVETOR SAY И BRACON GREENI ASHMEAD //Актуальные проблемы современной науки. – 2017. – №. 3. – С. 215-218.
10. Axmatovich J. R. In Vitro Rearing of Parasitoids (Hymenoptera: Trichogrammatidae and Braconidae) //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 4. – С. 33-37.
11. Suleymanov B. A., Jumaev R. A., Abduvosiqova L. A. Lepidoptera Found In Cabbage Agrobiocenosis The Dominant Types Of Representatives Of The Category Are Bioecology //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 125-134.